



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 20-mart

139-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 18-martda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 27-fevraldagi PQ–77-son qarori ijrosi haqida”gi 136-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora -tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 27-fevraldagi PQ–77-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 18-martdagi 136-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 18-martdagi 136-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ–77-son qarori bilan:

2025-yilda iqtisodiyot tarmoqlarida energiya resurslari iste‘molini qisqartirish va iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari etib 3,3 milliard kub metr tabiiy gaz va 3,5 milliard kVt/soat elektr energiyasini iqtisod qilish, shu jumladan:

(a) yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarida 2025-yilda qo‘shimcha 5,6 milliard kVt/soat “yashil” elektr energiyasini ishlab chiqarish orqali 1,7 milliard kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish;

(b) issiqlik elektr stansiyalarida shartli yoqilg‘i sarfini 5 foizga kamaytirish, yangi samarador quvvatlardan foydalanishni ko‘paytirish hisobiga 255 million kub metr tabiiy gaz, 560 ming tonna mazut va 232 ming tonna ko‘mir yoqilg‘isini, shuningdek, taqsimlash tarmog‘idagi yo‘qotishlarni kamaytirish hisobiga 478 million kVt/soat elektr energiyasini tejash;

(v) neft-gaz, kimyo, metallurgiya, qurilish materiallari va tarmoqlardagi 25 ta yirik korxonani energiya auditidan o‘tkazish, tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirish hamda uy-joy va kommunal xo‘jaligining energiya samaradorligini oshirish hisobiga 1,35 milliard kub metr tabiiy gaz va 3 milliard kVt/soat elektr energiyasi iste‘molini qisqartirish belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov ikki hafta muddatda mazkur qarorning 1-bandida nazarda tutilgan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilishini ta‘minlash uchun tarmoqlar, yirik korxonalar va mas‘ullar kesimida har oylik rejalarni tasdiqlashi;

2025-yil 1-iyundan boshlab quyidagi tartib o‘rnatilishi:

(a) oyiga 1 000 kub metrdan ortiq tabiiy gaz sarflaydigan aholi xonadonlariga energiya samarador va zamonaviy uskunalar (gaz gorelkali qurilmalar)ni o‘rnatish uchun tijorat banklari orqali ajratiladigan “yashil kreditlar”ning 18 foizdan yuqori qismi Energetika vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Tarmoqlararo energiyani tejash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplab berilishi. Bunda ushbu maqsadda Bosh vazir o‘rinbosari J. Qo‘chqorov Davlat budjetidan 2025-yilda 200 milliard so‘m ajratish choralari ko‘rishi;

(b) budjet tashkilotlari hamda davlat ishtirokidagi korxonalar xodimlarining o‘z ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan va o‘rnatiladigan quyosh panellari, quyosh kollektorlari hamda energiya

samarador qurilmalar bilan bog'liq xarajatlari tegishli tashkilotning budjetdan tashqari mablag'lari va korxonaning mablag'lari hisobidan xodimning oylik ish haqidan foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash sharti asosida moliyalashtirilishi;

quyidagilar:

(a) Tabiiy gaz iste'moli hisobini yuritish va nazorat qilish avtomatlashtirilgan tizimining to'liq va samarali ishlashini yo'lga qo'yish bo'yicha ishchi guruh tarkibi va uning vazifalari 1-ilovaga muvofiq;

(b) Energiya resurslari sarfi yuqori bo'lgan aholi xonadonlarida energiya samaradorligini oshirish yuzasidan manzilli ishlash bo'yicha tuman (shahar) ishchi guruhlarining namunaviy tarkibi va ularning vazifalari 2-ilovaga muvofiq;

(v) Ijtimoiy soha obyektlarida energiya resurslarini chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha respublika ishchi guruhi tarkibi, tuman (shahar) ishchi guruhlarining namunaviy tarkibi va ularning vazifalari 3-ilovaga muvofiq;

(g) Bir birlik mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) uchun sarflanadigan energiya resurslarini 5–10 foizga tejash talabi qo'yiladigan davlat ulushi mavjud 25 ta yirik korxona ro'yxati 4-ilovaga muvofiq;

(d) Davlat ulushi mavjud issiqlik elektr stansiyalaridagi energiya sarfi yuqori bo'lgan, konservatsiya qilinadigan va bosqichma-bosqich foydalanishdan chiqariladigan energiya qurilmalari ro'yxati 5-ilovaga muvofiq;

(e) Energiya resurslarini tejash va energiya samaradorligini oshirish tizimini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati 6-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi e'tiborga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov uch kun muddatda mazkur qarorga 2 va 3-ilovalardagi namunaviy tarkiblarga muvofiq tuman ishchi guruhlarini shakllantirib, ularning faoliyatini samarali yo'lga qo'ysin va muvofiqlashtirib borsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov